

## TEMUR TUZUKLARIDA QO'SHIN TA'MINOTIGA OID MA'LUMOTLAR TAHЛИLI

Polvanov Azim Kuchkarovich

TMC instituti "Tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12176755>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Temur tuzuklari" va unda qo'shin bilan bog'liq ma'lumotlar xususan qo'shinni qismlarga bo'linishi, qo'shining boshqarilishi, qo'shin boshliqlarining tayinlanishi, shuningdek askarlarga martabasiga qarab maosh berish tartiblari. Bundan tashqari qo'shinda belgilangan tartiblarni buzgan navkarlarning maoshini kamaytirish tartiblari va bunday qoidalar qo'shinda tartib intizom o'rnarilishiga xizmat qilganligi haqidagi fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Temur tuzuklari, Tuzuki Temuriy, Mir Abu Tolib al-Husayni at-Turbatiy, Amir Husayin, To'xtamishxon, Ilyosxo'ja, Lashkar, o'nboshi, yuzboshi, mingboshi.

## ANALYSIS OF INFORMATION ON THE PROVISION OF TROOPS IN TIMUR'S REGIME

**Annotation.** In this article, the "Temur formations" and the information related to the army in it, in particular, the order in which the army was divided into parts, the command of the army, the appointment of army chiefs, as well as the procedures for paying soldiers according to rank. In addition the Army cited procedures to reduce the pay of navkars who violated established procedures, and comments that such rules served to establish discipline in the army.

**Keywords:** Amir Temur, Temur tuzuklari, Tuzuki Temuriy, Mir Abu Talib al-Husayni at-Turbatiy, Amir Husayin, Atomishkhan, Ilyaskhoja, Lashkar, o'nboshi, Centurion, mingbashi.

## АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ О ПРЕДОСТАВЛЕНИИ ВОЙСК ПРИ РЕЖИМЕ ТИМУРА

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются "структуры Тимура" и информация, относящаяся к армии, в частности, разделение армии на части, управление армией, назначение командиров армий, а также порядок оплаты труда солдат в зависимости от их ранга. Далее приводятся рассуждения о порядке снижения заработной платы навкарам, нарушившим установленные порядки в армии, и о том, что такие правила служили установлению дисциплины в армии.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Тимур тузуки, тузуки Темури, мир Абу Талиб аль-Хусейни Ат-Турбати, Амир Хусейн, Тохтамыш-хан, Ильясходжа, Алкар, десятник, сотник, тысячицник.

Amir Temur butun dunyoga mashhur sarkarda va hukmdor bo'lishi bilan bir qatorda ilmli, ma'rifatli va aqil zakovatl shaxs ham edi. Davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, qo'shin ta'minoti, xalq bilan murosa qilish masalalariga oid bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo'lgan fikrlar, qoidalar bayon etilgan "Temur tuzuklari" asari muhim manba bo'lib hisoblanadi. "Temur tuzuklari" asari haqida o'zbek olimlarimiz orasida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, rahmatli akademik Bo'ri Ahmedovning yozganiga qaraganda, «Tuzuki Temuriy» asarini fors tiliga Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy Arabistonidan qaytishda Agrada boburiy Shoh Jahon (1628-1657)ning xizmatiga kirgan va o'shanda uning iltimosi bilan «Tuzuki Temuriy»ni eski o'zbekchadan fors tiliga taijima qilib, mazkur podshohga taqdim etgan.

"Temur tuzuklari" asari turli masalalar jumladan davlatni boshqarishda kengash o'tkazish, Vazirlar va oliy martabali mulozimlarni tayinlash, Amir Temuring turli hududlarni zabit etishdagi tadbirlari, Amir Husayin, To'xtamishxon, Ilyosxo'ja, kabi hukmdorlarlar bilan olib borgan janglari va ga'labalari shuningdek navkarlarga maosh va martaba berish qoshinni quroslasha bilan ta'minlash masalalari bayon etilgan.

Amir Temur katta davlat barpo etdi. Bunday katta hududga ega davlatni barpo etishda va uni boshqarishda katta harbiy tayyorgarlikka ega mutazam katta qo'shin muhim o'rinn tutgan, albatta bunday katta qo'shinni oziq ovqat, kiyim-kechak va qurol-aslaha bilan ta'minlash muhim masala hisoblangan. Mana shunday ta'minot masalalari umuman qo'shinni tashkil etish va ta'minlashga oid ma'lumotlar "Temur Tuzuk" larida atroficha bayon etilgan. Xususan "Temur Tuzuk"larining "Lashkar saqlamoqning tuzuki" bo'limida quyidagi ma'lumotlar yozilgan "Amr etdimki, o'n nafar asil va ish qilgan kishi jam bo'lsa, ularning bir bahodir javharini, o'sha to'qqiz nafarning roziligi va ma'qu1 ko'rmagi bilan ularga amir etgaylarkim, unga o'nboshi ot qo'yalar. Va o'nta o'n- boshi jam bo'lsa, ulardan ish bilgan va ish qilgan birini, ularga amir etkaylarkim, unga yuzboshi ot qo'yalar. Va o'n yuzboshi jam bo'lsalar, .bir asil va oqil va bahodir va mardona amirzodani ularga amir etkaylarkim, unga mingboshi va «amiri hazora» (minglik amiri) derlar..." bundan bilamizki, Amir Temur qo'shinida qo'shinni tashkil etishda o'nlik -o'nboshilar orqali, yuzlik-yuzboshilar, minglik-mingboshilar orqali boshqarilgan. Qo'shindagi askarlarning qanday maosh olishini quyidagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkin.

"Amr etdimkim, sipoh maoshlarini amirlar va mingboshi va yuzboshi va o'zga sipohdan bu tariqa muqarrar qilgaylarkim, o'zga sipohkim, basharti asil bo'lsa ya sipohgarlik shartini bajoy keltursa, uning o'zi bila otining maoshi muqarrar bo'lgay. Va bahodirlarning maoshi ikki otdan to to'rt otgacha muayyan bo'lg'ay, Va o'nboshining maoshi tobelarning maoshlaridan bir barobar ortiq bo'lg'ay. Va yuzboshining maoshi o'n boshining ikki baravar maoshigacha va mingboshining maoshi yuzboshining uch chandon maoshigacha muayyan bo'lg'ay

Va hukm etdimki, Lashkarning har qaysi biri lashkargohda gunoh ish qilsa, uning maoshidan o'ndan birini kam qilg'aylar.." ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinish turibdiki, askarlarga maosh berish tartiblariadolatli askarlarni namunali xizmat qilib martabalarini oshirishga va shunga yarasha rag'bat olishlari mumkinligi, agarda qoshindagi belgilangan tartib qoidalarni buzsa yoki amal qilmasa maoshidan kamaytirish tartiblari ham belgilanganligini ko'ramiz bunday tartiblar askarlarni harbiy tartib intizomga amal qilishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi, qo'shin tashkil etish, oliv martabali lavozimlarga munosiblarni tayinlash, xalq bilan murosa qilish masalalarida bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega asar hisoblanadi.

## REFERENCES

1. B.Ahmedov. "Temur tuzuklari haqida ikki og'iz so'z" Temur tuzuklari T., 1996,4-bet
2. B.Ahmedov. Amir Temurni yod etib. T., 1996, 4-5 betlar
3. Temur tuzuklari / Amir Temur Ko'ragon.-T.; "ijod press" Nashriyoti,2019,
4. Kuchkarovich P. A. XONDAMIRNING HAYOTI VA UNING "XULOSAT UL-AXBOR" ASARI HAQIDA //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 4. – C. 862-864.